

## HAR QANDAY PEDAGOG BUNI BILISHI KERAK O'QUVCHILARINGZ SINESTETIKMI?

*SamDChTI 2-bosqich talabasi:*

**Yuldasheva Munajat Yegambergan qizi**

*Ilmiy rahbarlar: N.N.Zubaydova*

**Sh.Mamayoqubova**

**Annotatsiya:** *maqolada juda kam inson xabardor bo'lgan o'quvchi turlari – kinestetiklar haqida so'z boradi. Ular darsni shunchaki to'g'ri o'tirib eshitishmaydi, dars paytida darsga nodoir bo'lgan hatti-harakatlar qilishadi, va o'qituvchilar nazdida bu hurmatsizlik yoki darsga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi, aslida bu harakatlar o'quvchilarning ma'lumot qabul qilishiga yordam beradi. Vaholangki, bu jarayonni engillashtirish hamda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni mustahkamlash yo'llari ushbu maqolada keng yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagog, o'quvchilar turlari, kinestetik o'quvchilar, tavsiya, samarali yechim.*

Hammamiz bilamizki, hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tubdan rivojlangan, vaholangki, shu bilan birga ta'limga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bu shuni anglatadi o'qituvchilar uchun ma'suliyat va raqobat ham kuchaydi. Yurtimizdagi pedagoglar malakasini oshirish maqsadida ushbu maqolaning mavzusini keng yoritishga qaror qildik. Mavzu o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ba'zi muammolarga duch kelayotgan o'qituvchilar uchun, bilasizki, o'quvchilar 3 turga bo'linadi: audial, visual va kinestetik. Biz aynan kinestetik turdagi o'quvchilar haqida so'z yuritimiz, ularga misol, ular boshqalarga o'xshamagan, noodatiy o'quvchilardir, dars vaqtidagi harakatlari tashqaridan hurmatsizlikdek tuyilsa ham, aslida unday emas.

Kinestetik o'quvchilar - bu dars jarayonida siz tushuntirayotgan ma'lumotni, tana a'zolari yordamida qabul qilishadi, ya'ni ular siz gapirayotganda faqat sizga qarab hech ish bajarmay o'tirishlari ilojsiz. Sizni tushunishlari uchun ular nima bilandir band bo'lishlari zarur, bu ularning ong osti faoliyati faol ishlashi uchun zarur. Bu turdagi o'quvchilar boshqalarga qaraganda mehribon bo'lishadi, qo'shimcha ravishda taomlar va yeguliklarning ta'mini tatib ko'rishga qiziqishadi. Bundan tashqari ular quyidagi iboralardan tez-tez foydalanishadi: “-Menga shunday tuyulyabdi”, “-Men his qilayabman”. O'qituvchi bilan masofa saqlashga harakat qilishadi. Odatda, ovoz tonlari past lekin nutqi tushunarli bo'ladi. Salohiyat jihatdan juda sezgir hamda vaziyatni analiz qilish ularda kuchli bo'ladi.

Agar siz pedagog bo'lsangiz va sizning o'quvchilaringizda quyidagi holatlar kuzatilayotgan bo'lsa va sizga yechim kerak bo'lsa, keyingi maslahatlarga rioya qiling. Avvalambor, siz o'quvchingiz kinestetik yoki boshqa turdagi o'quvchi ekanligini aniqlab olishingiz kerak. Bunda sizga yuqorida keltirib o'tgan belgilar yordam beradi. Agar hatti-harakatlari kinestetik o'quvchilarnikidek bo'lsa dars jarayoningiz samarali va qiziqarli

bo'lishi uchun bir nechta tavsiyalarimiz bor. Misol uchun, kinestetik o'quvchingiz dars vaqtida barmoqlarini mashq qildirayotgan bo'lsa, bu harakat sizga yoqmasa ham unga e'tiroz bildirmasligingiz kerak, ya'ni u ma'lumot qabul qilayotganda nima bilandir mashg'ul bo'lishi lozim. Agar siz u foydalanoygan narsasini olib qo'ysangiz yoki ortiqcha harakat qilmasligi haqida buyruq bersangiz, u sizni keyin eshitishni xohlamaydi, ya'ni ham ma'naviy jihatdan ham fiziologik jihatdan siz berayotgan ma'lumotlarni qabul qilmaydi. O'quvchingiz tanlagan ish-harakat, ya'ni barmoqlar mashqi unga kerak. Sizni yaxshiroq tushunishi uchun shunday qilayotgan bo'ladi.

Bundan tashqari, kinestetik o'quvchilaringiz bilan darsni iloji boricha ta'na a'zolari harakatlari bilan olib boring, har xil turdagi o'yin va mashqlar bilan. Masalan, agar biror davlat haqida ma'lumot o'rganayotgan bo'lsangiz, o'sha davlatning oshxonasiga oid birga biror taom yoki yegulik tayyorlang. Va shu vaqt ichida mavzu bo'yicha savol-javob o'tkazing.

Xulosa o'rnida shu aytib o'tamizki, agar pedagoglik bilim va tajribalaringizga tayanib o'quvchilar bilan yuqoridagi tavsiyalarni inobatga olib ish tutsangiz. Ta'lim sifati sezilarli darajada o'sganining guvohi bo'lasiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://uzinterbiz.com>
2. <https://homeschoolingilnitskaya9784>
3. <https://matsko.coach.4you>